

ANALYSIS OF THE DATA

The first step in the analysis of the data is to determine the distribution of the variables. This is done by plotting the data on a graph and looking for patterns. The distribution of the data is then used to determine the mean and standard deviation of the variables.

The next step is to determine the relationship between the variables. This is done by calculating the correlation coefficient between the variables. The correlation coefficient is a measure of the strength and direction of the relationship between two variables.

The final step in the analysis of the data is to determine the significance of the results. This is done by using statistical tests to determine if the results are statistically significant. The significance of the results is then used to determine if the results are likely to be due to chance or if they are likely to be due to a real effect.

The analysis of the data shows that there is a strong positive correlation between the variables. This suggests that as one variable increases, the other variable also tends to increase. The results are statistically significant, which suggests that the results are likely to be due to a real effect rather than chance.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI



“AREAL LINGVISTIKA

fanining
O'QUV DASTURI (SILLABUSI)

Bilim sohasi:	200 000 – San'at va gumanitar fanlar
Ta'lim sohasi:	230 000 – Tillar
Magistratura mutaxassisligi:	70230103 – Folklorshunoslik va dialektologiya

Fan/modul kodi 302 ARL 1 9		Fan/modul turi majburiy		Ta'lim tili o'zbek		Ishlab chiqilgan o'quv yili 2022/2023				
Semestr	Har bir semestrda modulning nomi	ECTS - Kreditlar	Haftalik dars soatlari	O'quv mashg'ulotlari (soat)					Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
				Jami:	ma'ruza	seminar	amaliy	laboratoriya		
1	Areal lingvistika	4	4	60	30	0	30	0	60	120
2	Areal lingvistika	5	4	60	30	0	30	0	90	150
	Jami:	9	8	120	60	0	60	0	150	270

1. FANNING MAZMUNI

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarni “Areal lingvistika”ning zaruriy ma'lumotlari majmuasi (tushunchalar, nazariyalar va ularning isboti, sohaning amaliy masalalarini yechish usullari va boshqalar) bilan tanishtirish hamda dialektologiyaning uzviy bog'liqliklarini o'rganishdan iborat. Ayni paytda u talabalarni shu sohada mantiqiy fikrlashga, ilmiy xulosa chiqarishga, “Areal lingvistika”ning nazariy va amaliy muammolarini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Fanni o'qitishning vazifasi – talabalariga “Areal lingvistika” nazariyasi hamda amaliyotiga oid bilimlarni berish, olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay bilishga va oqibat natijada ularni areal lingvistika va dialektologiya munosabatlari, ularga xos jarayonlarning modellarini tuzish va tekshira olishga o'rgatishdan iborat

2. FANNI O'QITISH NATIJALARI VA SHAKLLANADIGAN KASBIY KOMPETENSIYALAR

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

areal lingvistikaning fan sifatida shakllanishi, uning dialektologiya, geografiya va areologiya fanlari nazariyasi va uning asosiy tushunchalarini umumlashtirishi, jahonda va turkologiyada, shu jumladan, o'zbek tilshunosligida o'rganilish holati to'g'risida *tasavvur va bilimga ega bo'lishi*,

areal lingvistika metodlari, takson va taksonomiya, til va dialektal zona, dialektal kontinum, lingvistik kartalarni tuza olish *ko'nikmalariga ega bo'lishi*;

til va dialektlarni o'rganishda aholi tarkibini tahlil qila olish, izoglossalarni joylashtira olish, fokus nuqtasini belgilay olish, til va dialektlarni zonalashtirish, lingvistik karta va atlaslarni o'qiy olish *malakalariga ega bo'lish ikerak*.

3. O'QUV FANI O'QITILISHI BO'YICHA USLUBIY KO'RSATMALAR

Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- ma'ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- individual loyihalar;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

3. TALABALAR KREDITLARNI OLISH TARTIBI

Talabalarning bilimni baholash tartibi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi Nizom talablari asosida belgilanadi.

1. Nazoratlarni amalga oshirish tartibi.

Oraliq nazorat: O'tilgan mavzular asosida test yoki yozma ish shaklda o'tkaziladi.

Yakuniy nazorat: Semestr davomida o'tilgan mavzular bo'yicha yozma ish yoki test shaklda o'tkaziladi.

Izoh: Oraliq nazorat turi har bir fan bo'yicha fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda 2 martagacha o'tkazilishi mumkin.

Talabani oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda, uning o'quv mashg'ulotlari davomida olgan baholari inobatga olinadi.

Nazoratlarning o'tkazilishi muddatlari muayyan o'quv yilida tasdiqlangan o'quv jarayoni jadvali asosida tashkil etiladi.

2. Talabalarning bilimi baholash mezonlari:

talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **5 (a'lo) baho**;

talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **4 (yaxshi) baho**;

talaba olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – 3 (qoniqarli) baho;

talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning mohiyatini tushunmaydi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda – 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi.

5. O'QUV MASHG'ULOTLARI VA MUSTAQIL TA'LIM QISMI

1-SEMESTR

1. Ma'ruza mashg'ulotlari

№	Ma'ruza mavzulari	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Soat
1.	“Areal lingvistika” fanining predmeti va vazifalari	Fanning maqsadi, vazifalari, areal lingvistika termini talqini, uning obyektid, fan bo'yicha amalga oshiriladigan o'quv vazifalari.	2
2..	“Areal lingvistika” va yondosh fanlar	Areal lingvistika, dialektologiya, areologiya, geografiya munosabatlari, “Areal lingvistika”ning o'ziga xosligi	2
3.	“Areal lingvistika”ning shakllanishidagi tayyorgarlik davri	Areal lingvistikada tayyorgarlik davri tushunchasi. “uzviylik zanjiri”, M. Koshg'ariy va ilk davr.	2
4.	“Areal lingvistika”ning yangi davri	Neolingvistika, uning ijodkorlari va davomchilari, ular surgan g'oyalar.	2
5.	Til va dialektlarni o'rganish metodlari. Lingvistik geografiya metodi	Qiyosiy – tarixiy, anketa. dialektologik ekspeditsiya. tilni o'rganishning zamonaviy metodlari, dialektometrik metod, lingvistik geografiya.	2
6.	“Areal lingvistika”ning qayd qilish va sharhlash metodlari	Til va sheva faktlarini qayd qilish, sharhlash, innovatsiya markazini aniqlash, oraliq shevalarni belgilash.	2
7.	Lingvistik areal	Areal, areologiya, lingvistik areal, unda makon va vaqt birligi, lingvistik hudud tushunchasi.	2
8.	Areallarning turlari	Areal turlari: tor, keng, oddiy, murakkab, bo'lingan areallar.	2
9.	Areallarning tiplari	Lokal, subregional, regional, poliregional, kosmopolitik, innovatsion, migratsion areallar, vikarizm.	2

10.	Izoglossa	Izoglossa ta'rifi, turlari. Izoleksema, izofonema, izomorfema, izosema.	2
11.	Genetik va konvergent izoglossalar	Genetik va konvergent izoglossalar, tillararo, shevalararo izoglossa.	2
12.	Takson va taksonomiya	Lingvistik hudud va takson tushunchasi. Taksonning definitsiyasi. Taksonniyaning umumlashirish xususiyati. Grammatik shakllarda taksonomiya.	2
13.	Taksonomik areal lingvistika	Umumiy va taksonomik lingvistika. Taksonlarni o'rganish jihatidan areal lingvistika turlari. Gemogen va geterogen taksonlar.	2
14.	Intensional takson	Bir til ichidagi taksonlar, til va dialekt fenomeni, turli til va dialektlarga oid taksonlarning keng hududlarga tarqalishi.	2
15.	Ekstensional takson	Yer shari, lingvistik hudud, til massivi, landshaft, dialektal zona.	2
		Jami:	30 soat

2. Amaliy mashg'ulotlar

№	Amaliy mashg'ulot mavzulari	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Soat
1.	"Areal lingvistika"ning shakllanishi va tushunchalari	"Areal lingvistika" fanining ahamiyati, unga berilgan ta'riflar, bu fanning boshqa lingvistik fanlarga munosabati.	2
2.	Areal lingvistika va dialektologiya	Dialektologiyaning predmeti va areal lingvistikaga munosabati.	2
3.	"Areal lingvistika"ning paydo bo'lishi	Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik va "Areal lingvistika", I. Schmid nazariyasi. "To'lqin nazariyasi". "Urban dialekt" tushunchasi.	2
4.	M. Koshg'ariy va "Areal lingvistika"	M. Koshg'ariyning turkiy shevalarni o'rganish usuli, uning ijodida turkiy va turkiy bo'lmagan urug'-qabilalar tavsifi, u - areal lingvistikaning dastlabki tadqiqotchisi sifatida.	2

5.	Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik va areal lingvistika	Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik vakillari va ular qarashlariga nisbatan tanqidiy munosabatlar.	2
6.	“Areal lingvistika” va dialektologiya	Areal lingvistika hamda dialektologiyaning maqsad va vazifalaridagi o'xshashlik va farqlar, dialektologiyaning areal lingvistika uchun material manba ekanligi va h.k.	2
7.	Areal turlari	Areal, areologiya, tor, keng, oddiy, murakkab, bo'lingan areallar. Seminar	2
8.	Areal tiplari	Lokal, subregional, regional, poliregional, kosmopolitik, innovatsion, migratsion areallar, vikarizm. Ta'rifi, ularning kartalarda berilishi.	2
9.	Izoglossalar	Genetik va konvergent izoglossalar, tillararo, shevalararo izoglossalarning xususiyatlari.	2
10.	Izoglossalarning turlari	Izomorf, izosema, izoleks, izofon, izoleks.	2
11.	Izoglossalar tahlili	Kartalardagi izoglossalarni tahlil qilish.	2
12.	Areal lingvistika va interferensiya	Interferensiya va til hamda shevalarning o'zaro ta'siri.	2
13.	Taksonlar	Lingvistik hududning yagonaligi va turli-tumanligi, Takson tushunchasining areal lingvistikadagi ahamiyati.	2
14.	Umumiy va taksonomik areal lingvistika	Umumiy areal lingvistik xususiyatlari, taksonomik areal lingvistikaning o'ziga xosligi.	2
15.	Intensional takson	Yer shari, lingvistik hudud, til massivi, dialektal zona.	2
		Jami:	30 soat

3. Mustaqil ta'lim ishlari

No	Mustaqil ta'lim mavzulari	O'quv mashg'ulot turi nomi	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Soat
1.	Areal lingvistikaning shakllanishi va uning o'rganilishi tarixi	ma'ruza	Areal lingvistika fanining qiyosiy-tarixiy tilshunoslik asosida yuzaga kelishi. Uning shakllanishidagi tayyorgarlik va yangi davri. Neolingvistika.	4
2.	Fanning asosiy muammolari hamda hozirgi holati	amaliy	Turkologiya va o'zbek tilshunosligida areal lingvistika muammolari. "Urban dialekt"ning o'zbek areal lingvistikasidagi ko'rinishlari.	4
3.	Areal lingvistika fanining o'rganish obyektlari.	amaliy	Til va dialekt-larning areal xususiyatlari, dialektologik atlas, areal tipologiya, arcallar, til va dialektal zona va b.	4
4.	Areal lingvistika va til hududlari..	amaliy	Til va sheva hududlari hamda zonalar. Ularning ayni va farqli o'rinlari.	4
5.	Areal lingvistika va aloqador fanlar	amaliy	Areal lingvistika-fanning boshqa lingvistik fanlar doirasida tutgan o'rnini. Uning mustaqil fan ekanligi.	4
6.	M. Koshg'ariyning areal lingvistik qarashlari	amaliy	M. Koshg'ariy areal lingvistika uchun qimmatli ma'lumotlar bera olganligi. Uning qarindosh va qarindosh qabilalar talqini.	4
7.	Izoglossalarni kartada belgilash yo'llari	amaliy	Izoglossa, karta, masshtab, izoglossalarning toifasi.	4
8.	Dialektologik adabiyotlarda izoglossalarning talqin qilinishi	amaliy	Ingliz, rus, turkiy tillarda e'lon qilingan	4

			dialekto-logik adabiyotlarda izoglossalarga berilgan ta'riflar va talqinlarni tahlil qilish.	
9.	Lingvistik areal talqinlari	amaliy	Areal turlari va tiplari. Uning o'zbek tili va shevalari uchun ahamiyati.	4
10.	Til oilalarining hududiy tarqalishi	amaliy	Til oilalarining hududiy yaxlitligi va tarqoqligi. Ularning zonaga munosabati.	4
11.	Hududiy yaqin tillardagi o'zaro ta'sir doirasi	amaliy	Markaziy Osiyoda tillarning chegara-doshligi va aralash yoyilishi. O'zbek-tojik, o'zbek qirg'iz, o'zbek-qo-zoq, o'zbek-turkman tili kontaktlari.	4
12.	N. Z. Gadjieva va A. Jo'rayevlarning areal lingvistika metodlari bo'yicha qarashlari	amaliy	N.Z. Gadjieva va A.Jo'rayevlarning tadqiqotlari, ularda ilgari surilgan g'oyalarning mohiyati.	4
13.	Taksonlar to'g'risida ilmiy adabiyotlardagi ma'lumotlar	amaliy	Darslik, qo'llanmalarda va ilmiy adabiyotlardagi takson va taksonomiya talqinlari.	4
14.	Taksonlar to'g'risida axborot tizimidagi ma'lumotlar	amaliy	Axborot tizimida taksonlar to'g'ri-sidagi ma'lumotlar talqini.	4
15.	Ekstensional takson mohiyati	amaliy	Yer shari, lingvistik hudud, til massivi, dialektal zona tushunchalarining taksonoik areal lingvistikadagi o'rni, undan foydalanish masalalari.	4
			Jami:	60 soat

2-SEMESTR

I. Ma'ruza mashg'ulotlari

№	Ma'ruza mavzulari	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Soat
1.	"Areal lingvistika"da innovatsiya masalasi	Innovatsiya va innovatsiya markazi tushunchasi, lingvistik hodisaning paydo bo'lish nuqtasi, izoglossalar tarixini aniqlash.	2
2.	Lingvistik kontaktologiya va "til ittifoqi"	Jahon tillarining rivojlanish xususiyatlari, tillar kontakti to'g'risida, til kontaktlarning ijtimoiy mohiyati va ularning turlari, "til ittifoqi" tushunchasining fanga kiritilishi	2
3.	Til va dialektal zona	Fokus nuqtasi, til zonasi, dialektal zona, dialektal zona va davlat chegaralari	2
4.	Tillar oilasi va zona	Tillar oilasi va til (dialekt) zonasi munosabati, qarindosh tillarning hudud va til tiplari jihatidan guruhlashtirilishi	2
5.	O'zbek tilining dialektal zonalari	O'zbek tili o'n bir dialektal zonasining xususiyatlari va har bir zona tavsifi,	2
6.	O'zbek tilining azonal hududlari	Azonalashtirish tushunchasi, azonalashtirilgan hududlar, ularning o'ziga xos xususiyatlari, ularga tanqidiy qarash	2
7.	Lingvistik geografiya. Lingvistik karta va atlaslar	Lingvistik geografiya tushunchasi izohi, areal lingvistikaning tarkibiy qismi ekanligi, lingvistik karta va atlaslar, ularning ijodkorlari	2
8.	Turkiy tillar lingvistik geografiyasi muammolari	Turkiy tillarning areal lingvistik muammolari. Baku kengashi va uning taqdiri. Turkiy areal lingvistik tadqiqotlar tavsifi.	2
9.	Kontinuum	Kontinuum tushunchasi, geografik va ijtimoiy dialektal kontinuum, ularning qarindosh tillardagi va dialektlardagi ko'rinishlari. Kreol tili masalasi	2
10.	Kontinuum zonalari	Kontinuumning markaziy, marginal, diffuz zonalari, diasistema, til kompleksi.	2

11.	Til va dialektlar sistematikasi. Klaster	Til, lahja, dialekt, sheva pog'onaviyligi. Klaster va idiom. Til sistematikasi va taksonomiya	2
12.	Sistematika va til (dialekt)lar tasnifi	Til va dialektlarni tasnif qilish an'anasi, tasnif va sistematika, tasnif tamoyillari	2
13.	O'zbekistonda lingvistik geografiyaning rivojlantirilishi	O'zbekistonda lingvistik geografiyaning shakllanishi. O'zbek shevalarining lingvogeografik o'rganilishi	2
14.	Mahmud Koshg'ariy va areal lingvistika	Mahmud Koshg'ariyning lingvistik faoliyati. U yaratgan karta tavsifi	2
15.	Areal lingvistik tadqiqotlar	Yevropa va rus areal lingvistikasi. O'zbek areal lingvistikasining rivojlantirilishi. Xotima	2
Jami:			30 s.

2. Amaliy mashg'ulotlar

№	Amaliy mashg'ulot mavzulari	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Soat
1.	Innovatsiya markazini aniqlash	Innovatsiyani aniqlash tamoyillari. Izoglossalarning harakati. "Ona areal".	2
2.	O'zbek tili kontaktlari	O'zbek tilining boshqa tillar bilan aloqasi. Tojik, arab, rus va boshqa turkiy tillar bilan kontakti.	2
3.	"Til ittifoqi" nazariyasining paydo bo'lishi va rivojlantirilishi	"Til ittifoqi" g'oyasining paydo bo'lishi. Bu g'oyaning Yevropada va Markaziy Osiyoda talqin qilinishi.	2
4.	Til va dialektal zona	Til zonasi va dialektal zonaga qo'yiladigan talablar. O'zbek tili massivida dialektal zonalarining belgilanishi. Amaliy mashg'ulot.	2
5.	Til oilasi va zona	Jahon tillari tasnifidagi til oilasi tushunchasi, uning zona tushunchasiga munosabati.	2
6.	Azonal hududlar talqini	Azona (a-zona) tushunchasi talqini. Azonalarni belgilash tartibi. Azonalar tavsifi.	2
7.	Turkiy tillarda va o'zbek shevalarida geografik kontinumning amal qilishi	Qarindosh tillar yaqinligida pog'onaviylikning yuzaga kelishi. Ayni bir dialekt tarkibidagi	2

		shevalarda pog'onaviylikning namoyon bo'lishi.	
8.	Lingvistik geografiya. Lingvistik karta	Lingvistik geografiya areal lingvistikaning bir bo'limi va bir metodi ekanligi. Lingvistik karta yaratish va izoglossalarni joylashtirish tizimi. Kontur karta. Lingvistik atlas yaratish texnikasi ustida ishlash.	2
9.	Shevalar lingvistik kartalarini tuzish	Shevalar bo'yicha tuzilgan lingvistik kartalarni tahlil qilish va karta yaratish.	2
10.	Shevalar lingvistik kartalarini tuzish	Shevalar bo'yicha tuzilgan lingvistik kartalarni tahlil qilish va karta yaratish.	2
11.	Lingvistik geografiyaning O'zbekistonda rivojlantirilishi	V.V.Reshetov, A. Shermatov, Y. Ibrohimov, Q. Muhammadjonov, I. Darveshov. Z. Ibrohimovlar tuzgan kartalarni muhokama qilish.	2
12.	Turkiy tillar va shevalar kartalari	Tatar, boshqird, qozoq tillari va shevalari bo'yicha tuzilgan lingvistik kartalarni muhokama qilish.	2
13.	"Areal lingvistika" bo'yicha test topshiriqlari	"Areal lingvistika" fanidan o'tilgan mavzular bo'yicha testlar tuzish topshirig'ini berish va tuzilgan testlarni ishlab chiqish.	2
14.	Areal lingvistika" bo'yicha test topshiriqlari	Areal lingvistika" fanida o'tilgan mavzular bo'yicha testlar tuzish topshirig'ini berish va tuzilgan testlarni ishlab chiqish.	2
15.	Areal lingvistika" bo'yicha test topshiriqlari	Areal lingvistika" fanidan o'tilgan mavzular bo'yicha testlar tuzish topshirig'ini berish va tuzilgan testlarni ishlab chiqish. Amaliy mashg'ulot	2
		Jami:	30 soat

3. Mustaqil ta'lim ishlari

№	Mustaqil ta'lim mavzulari	Qaysi o'quv mashg'ulot turiga mos kelishi	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Soat
1.	O'zbek tili unilalarining innovasion markazi	amaliy	Unli tovushlardagi markaziy, pereferik va diffuz zonalar izohi.	6
2.	O'zbek tili fonetik qonunlarining innovation markazi	amaliy	Innovatsiyaning talqinlari. Singarmonizm va umlautning innovatsion zonasi	6
3.	Interferensiya hodisasi	amaliy	Interferensiya va "til ittifoqi" tushunchalari umumiyliigi va o'ziga xosligi.	6
4.	Hududiy yaqin tillardagi o'zaro ta'sir doirasi hududi.	amaliy	Kontaktologiya turlari va o'zaro ta'sir masalasi. O'zaro ta'sir va so'z o'zlashtirish.	6
5.	Areallarning turlari va tiplari	amaliy	Tor, keng, oddiy, murakkab, bo'lingan areallar; lokal, subregional, regi-onal, poliregional, kosmopolitik, innovatsion, migratsion areallar, vikarizmlarning izohlanishi.	6
6.	Areal lingvistikada substrat hodisasi.	amaliy	Mag'lub va g'olib til, til qoldiqlari va substrat	6
7.	Oraliq shevalarning fonetik xususiyatlari	amaliy	Oraliq sheva tushunchasi. Ikki yondosh shevadagi tovushlarning qo'llanish xususiyatlari.	6
8.	Oraliq shevalarning morfologik xususiyatlari	amaliy	Oraliq sheva tushunchasi. Ikki yondosh shevadagi morfemalarning qo'llanish xususiyatlari.	6

9.	Oraliq shevalarning leksik xususiyatlari	amaliy	Oraliq sheva tushunchasi. Ikki yondosh shevadagi leksik mosliklarning qo'llanish xususiyatlari.	6
10.	Jahon tillari tasnifi va sistematika	amaliy	Tillarning gene-alogik va tipologik tasnifida sistema-tikaning o'rni	6
11.	O'zbek shevalari tasnifi va sistematika	amaliy	O'zbek shevalari-ning tasnif qili-nishida sistema-tikaning o'rni	6
12.	Turli tizimdagi tillarning "Til ittifoqi"dagi ishtiroki	amaliy	Qarindosh va qarindosh bo'lmagan tillarda "til ittifoqi"ning amal qilish holati	6
13.	Kreol tillari	amaliy	Ijtimoiy dialektal kontinumning xususiyati. Pidjin tili.	6
14.	M. Koshg'ariy kartasi tahlili	amaliy	H. Hasanov tadqiqotlari va axborot tizimidagi ma'lumotlar sharhi.	6
15.	Jahonda va O'zbekistonda areal lingvistik tadqiqotlar	amaliy	Jahonda (shu jumladan, axborot tizimida) va O'zbekistonda amalga oshirilgan areal lingvistik tadqiqotlar sharhi.	6
			Jami:	90 soat

6. O'QUV ADABIYOTLARI VA AXBOROT MANBALARI

Asosiy adabiyotlar

1. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. Toshkent: Nodirabegim, 2021.
2. Murodova N. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: 2019.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябрдаги ПФ- 5850 сонли “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари туғрисида”ги Фармони.

2. Шерматов А. Лингвистик география нима? – Тошкент: Уқитувчи, 1972.

3. Гаджиева Н. З. Проблемы тюркской ареальной лингвистики. - Москва: Наука, 1975, 302 с.

4. Джураев А. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива. - Ташкент: Фан, 1991, 220 с.

5. Муродова Н. Узбек тили Навоий вилояти шеваларининг ареал тадқиқи. -Тошкент: Фан, 2006. 220 б.

6. Муродова Н. Раҳмонов Н. Узбек тили Навоий вилояти шеваларининг лингвоареал талқини (фонетик ва морфологик материаллари асосида). – Тошкент: Янги аср авлоди, 2017. 166 б.

7. Благова Г.Ф. Тюркское склонение в ареально-историческом освещении. – Москва: Наука, 1982. 304 с.

8. Дарвешов И. Ареал лингвистика: Жанубий-ғарбий Наманган шеваларининг фонетик-фонологик хусусиятлари. -Тошкент: Навруз, 1919, 110 б.

9. Мирзаев М.М. Узбек тилининг Бухоро гуруҳи шевалари. – Тошкент: Фан, 1969. 155 б.

10. Ashirboyev S. Areal lingvistikada takson tushunchasi talqini / Oltin bitiklar, 2021, 1-son

11. Ashirboyev S. “Til ittifoqi” tushunchasining o‘zbek areal lingvistikasiga tatbiqi masalasi / “O‘zbek shevalari tadqiqotlari: amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv” Respublika konferensiyasi. 2021.

12. Ashirboyev S. Areal lingvistikada innovatsiya muammosi // O‘zbek tilini dunyo miqyosida keng targ‘ib qilish bo‘yicha hamkorlik istiqbollari. TDO‘TAU, 2020.

13. Ashirboyev S. Lingvistik areal va uning tiplari talqiniga doir // Buyuk ipak yo‘lida umuminsoniy va milliy qadriyatlar: til, ta’lim va milliy qadriyatlar. -Samarqand, 2020.

Axborot manbaalari

1. <https://www.researchgate.net/publication>.
2. <https://unibook.upjs.sk>
3. <c:/itools/wms/cup-nev>
4. <https://bigenc.ru>
5. <https://studfile.net>

8. O'QUV DASTURI HAQIDA MA'LUMOT

O'quv dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2022-yil "25" "08" dagi "2" -sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

"O'zbek tishunosligi" kafedrası mudiri, f.f.d., professor

S.Ashirboyev

 (imzo)

Tuzuvchi –

S. Ashirboyev

 (imzo)

"O'zbek tishunosligi" kafedrası mudiri, f.f.d., professor


Taqrizchilar:

Xolmonova Z.

 (imzo)

ToshDO'TAU "O'zbek tilshunosligi" kafedrası professori, f.f.d.;

Rahmatov M.

 (imzo)

ToshDO'TAU "Folklorshunoslik va dialektologiya" kafedrası dotsenti, f.f.n.